Аннотация: В статье исследуются теоретические и методологические основы анализа перераспределения доходов в государственной финансовой политике с использованием методологии CEQ (Commitment to Equity). В ней подробно рассматривается практическая значимость методологии CEQ, её ограничения и перспективы дальнейшего развития. Также показано, как оцениваются перераспределительные характеристики налогов и государственных расходов через измерение воздействия фискальной политики на бедность и неравенство, которое является центральным критерием данной методологии. Приведён перечень статистических данных, необходимых для применения методологии, а также факторов, влияющих на проведение оценки CEQ.

Ключевые слова: управление государственными финансами, анализ фискальной политики, методология CEQ, анализ фискального воздействия перераспределения, распределение доходов, неравенство, бедность, префискальные и постфискальные показатели.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston davrida mamlakatimiz jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash yo‘lida transformatsiya va islohotlar jarayonini jadal davom ettirmoqda. Bunda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy muhitiga ta’sir ko‘rsatadigan davlat moliyaviy siyosati orqali iqtisodiy rivojlanish, soliq siyosati, davlat xarajatlari, davlat qarzi, ijtimoiy dasturlar va budjet siyosati orqali yuqori makroiqtisodiy natijalarga erishishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlat moliyaviy siyosati — bu davlatning makroiqtisodiy faoliyati va ijtimoiy muhitga ta’sir ko‘rsatishida pul-kredit siyosati va moliyaviy nazoratlar orqali amalga oshiradigan yo‘nalishlar majmuasidir. Ushbu siyosatning samarali ishlashini ta’minlash uchun davlat budjeti orqali iqtisodiyotning barcha sohalariga sarflanadigan mablag‘lar taqsimlanishi, soliq yuki optimal tarzda o‘zgartirilishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga transferlar ajratilishi, ijtimoiy ta’minotni kuchaytirish va aholining xarid qobiliyatini oshirish maqsadida turli ijtimoiy dasturlar joriy etilishi zarur. Bularning barchasi tizimli yondashuvni taqozo etadi.

Davlatning ijtimoiy funksiyasi ustuvorligi nuqtayi nazaridan moliyaviy siyosatga alohida ahamiyat beriladi. Shu bois, davlat moliyaviy siyosatining daromadlarni taqsimlash yo‘nalishi soliq tushumlari va davlat xarajatlari mutanosibligida, mavjud bozor kuchlari, institutlar hamda jamiyatdagi boylik va mulk taqsimoti asosida shakllanadi. Shundan kelib chiqib, soliqlar va davlat xarajatlarining taqsimlanish ta’sirini o‘lchash ijtimoiy barqarorlik hamda iqtisodiy o‘sish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Daromadlarni taqsimlashni baholashda esa eng keng qo‘llaniladigan usul — bu fiskal taqsimot tahlilidir.

Fiskal taqsimot tahlili soliqlar yukini kim ko‘tarayotgani, davlat xarajatlaridan — ayniqsa, ijtimoiy xarajatlardan kim foyda ko‘rayotganini aniqlash, shuningdek, soliq islohotlari yoki ijtimoiy dasturlardagi o‘zgarishlar kimlarga foyda, kimlarga zarar keltirayotganini baholash imkonini beradi. Aslida, fiskal taqsimot tahlili — soliqlar va davlat xarajatlarining uy xo‘jaliklariga qanday taqsimlanishini tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan metodologik yondashuv hisoblanadi. Bu orqali soliqlar va transfertlardan oldingi (pre-fiskal) va keyingi (post-fiskal) daromadlar taqqoslanadi hamda tengsizlik va kambag‘allikning tegishli ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Shunday qilib, fiskal taqsimot tahlili nafaqat butun fiskal tizimning taqsimlovchi ta’sirini, balki ayrim fiskal instrumentlar o‘zgarishining ta’sirini baholash uchun ham qo‘llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fiskal taqsimot tahlilining davlat moliyaviy siyosatidagi uzoq tarixga ega ekanligini ko‘plab ilmiy tadqiqotlar tasdiqlaydi. Xususan, soliq taqsimoti bo‘yicha adabiyotlarda, jumladan, Musgrave [1], Musgrave, King va Leonard [2], Musgrave va boshqalar [3], Pechman va Okner [4], Bourguignon va Morrisson [5] hamda Pechman [6] kabi mualliflarning dastlabki ishlari 50 yildan ortiq davr mobaynida empirik baholash yondashuvlarini o‘z ichiga olgan.

Xuddi shunday, davlat xarajatlari yo‘nalishida ham hisoblash metodikasidan foydalanish an’anasi uzoq tarixga ega bo‘lib, bu yondashuv Meerman [7] va Selovski [8] tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Fiskal taqsimot tahlili doirasida xulq-atvor (bixevioral) ta’sirlarini o‘rganishga qaratilgan ishlarda Gertler va Glewwe [9], Gertler va van der Gaag [10], Saxton va Younger [11], van de Walle [12] kabi olimlar o‘z nazariy qarashlarini fanga qo‘shganlar.

Fiskal taqsimot tahlili uchun metodologik asos sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan yondashuvlar Bourguignon va da Silva [13], Demery [14], Duclos va Araar [15] hamda Martinez-Vazquez [16] kabi mualliflarning ishlari orqali asoslab berilgan. CEQ metodologiyasidan chiqadigan ikki asosiy xulosa ko‘plab olimlar tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Birinchi xulosani shakllantirishda Lambert [17], Enami va boshqalar [18], Enami [19] kabi tadqiqotchilar muhim hissa qo‘shgan. Ularning ta’kidlashicha, soliqlar va davlat xarajatlarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilish nafaqat maqsadga muvofiq, balki zarurdir (1-jadval).

1-jadval. CEQ Baholashi metodologiyasida talab etiladigan statistik ma'lumotlar[1]

№	Bo'lim	Tarkibiy qismlar	Izohlar / Qo'shimchalar
1.	Uy xo'jalik-laridan so'rovnoma	Milliy reprezentativ so'rovnoma (daromad, xarajat, LSMS[2], bandlik so'rovnomalari)	Yillik kesimda, qayta ishlanmagan ma'lumot yoki yarim ishlangan shaklda bo'lishi lozim
		Uy xo'jaliklari ro'yxati va xarajatlari tarkibi	Majburiy talab
		Maorif va sog'liqni saqlash xarajatlari	Agar mavjud bo'lmasa, shu sohalarga oid ikkinchi darajali ochiq xorijiy so'rovnomalardan (masalan, Demographic and Health Surveys) foydalanish mumkin
		Bandlik, xarajat hisoblash usuli, uy xo'jaliklari o'lchamlari, bir shaxsga tenglashtirilgan koeffitsiyent, milliy qashshoqlik chizig'i kabi o'lchovlarning qiymatlari, chegaraviy miqdorlari, shartlari	Agar mavjud bo'lsa, albatta kiritish zarur
2.	Soliq va xarajatlar tavsifi	Har bir soliq va sarflash turi bo'yicha to'liq tushuntirish beruvchi yo'riqnoma va/yoki ma'lumotlar	Masalan, QQS, aksiz, to'g'ridan-to'g'ri transfertlar, ta'lim va sog'liqni saqlash xarajatlari, subsidiyalar va h.k.
3.	Audit qilingan budjet	So'rov yiliga tegishli (audit qilingan yoki rasmiy tasdiqlangan) budjet	Qayd etilgan talablarga muvofiq
3a	Daromadlar	JSHDS	Ish haqidan ushlanadigan soliqlar, to'lovchilar soni
		Korporativ soliq	Korxona foyda solig'i
		Boshqa daromad soliqlari	Deklaratsiya bilan tasdiqlanadigan ijara, dividend va h.k. daromadlar
		QQS, aksizlar, bojlar va h.k. (turi va mahsuloti bo'yicha)	Iloji bo'lsa, soliqqa tortish bazasi haqida ham ma'lumot
		Soliqqa aloqador bo'lmagan daromadlar	Milliy soliq siyosatida o'z aksini topmagan, masalan, kriptovalyutadan daromad
		Ijtimoiy sug'urta tushumlari va xarajatlari	Sohalari bo'yicha, masalan, pensiya, ishsizlik, nafaqa, sog'liqni tiklash sug'urtasi
		Agar pensiyalar ijtimoiy sug'urta tushumlari tarkibida bo'lmasa	Alohida pensiya sug'urta to'lovlari mavjud bo'lgan hollar uchun
3b	Xarajatlar	Naqd va yarim-naqd transfert xarajatlari va oluvchilar soni	Dasturlar bo'yicha alohida qilib ajratib ko'rsatish zarur
		Subsidiyalar	Alohida mahsulot/xizmat bo'yicha
		Davlat uy-joy xarajatlari va benefitsiarlar soni	Agar mavjud bo'lsa
		Ta'lim xarajatlari va o'quvchilar soni	Bosqichlar bo'yicha: maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, oliy
		Sog'liqni saqlash xarajatlari: kasalxona/poliklinika, statsionar/ambulator, ish haqi/tovar va xizmatlar bo'yicha taqsimoti	Hamda uy xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan ko-peymentlar va to'lovlar haqidagi ma'lumotlar
		Davlatdan tashqari sog'liq yoki sug'urta dasturlari orqali yo'naltirilgan xarajatlar	Ushbu ma'lumotlar "Izohlar" ustunida batafsil yozilishi mumkin
4.	Iqtisodiy matritsalar	Ishlab chiqarish-iste'mol jadvali (Input-Output), Ijtimoiy hisob-kitob matritsasi (SAM[3]), Taklif va foydalanish jadvali (SUT[4])	Agar mahalliy ma'lumot mavjud bo'lmasa, quyidagi manbalardan foydalanish mumkin: OECD IOT[5] va WIOD[6]

1 O'rganilgan ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

2 LSMS (Living Standards Measurement Study – Yashash darajasini o'lchash tadqiqoti) – bu Jahon banki tashabbusi bilan amalga oshiriladigan jahon miqyosida eng ishonchli va keng qo'llanadigan aholi so'rovnomalaridan biri bo'lib, asosan aholining turmush darajasi, daromadi, iste'moli, salomatligi, ta'lim darajasi, bandlik holati, qishloq xo'jaligi faoliyati va hokazo ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumot yig'ish uchun mo'ljallangan milliy reprezentativ uy xo'jaliklari so'rovnomasidir. O'zbekistonda LSMS formatidagi to'liq so'rovnoma hozircha rasman joriy etilmagan bo'lib, u davlat siyosatini baholashda va CEQ kabi modellarda juda muhim hisoblanadi.

3 Ijtimoiy hisob-kitob matritsasi (SAM - Social Accounting Matrix) – bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini bir vaqtda turli agentlar kesimida (uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat, tashqi sektor va hokazo) tuldiriluvchi shaklda aks ettiruvchi chetga chiqmagan ma'lumotlar matritsasidir.

4 Taklif va foydalanish jadvali (SUT - Supply and Use Table) – bu mamlakatdagi barcha tovarlar va xizmatlar: Qaysi tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgani (taklif), va qaysi sohalar va kimlar tomonidan foydalanilayotgani (foydalanish)ni tarmoqlar va mahsulotlar kesimida aniq, jadval shaklida ko'rsatib beradigan milliy hisobotlar tuzilmasidir.

5 IHTT rasmiy veb saytidagi alohida sahifadan foydalanish mumkin. Havolaga o'ting: https://www.oecd.org/sti/ind/input-outputtables.htm

6 Global Value Chains (Global qo'shimcha qiymat zanjirlari) tahlili va xalqaro savdo va import-eksport oqimlarini tahlil qilish uchun World Input-Output Database (WIOD) Groningen Growth and Development Centre (GGDC) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro iqtisodiy ma'lumotlar bazasi rasmiy veb sayti. Bunda tegishli tahliliy va statistik ma'lumotlar olish mumkin: https://www.rug.nl/ggdc/valuechain/wiod/

Soliqlar tengsizlikni oshiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi mumkin, ammo davlat xarajatlari bunday tengsizlikni bartaraf etuvchi ta’sir ko‘rsatadiki, soliqlarning salbiy ta’siri to‘liq kompensatsiyalanadi. Soliqlar regressiv bo‘lishi mumkin, ya’ni ular nisbatan kambag‘al qatlamga og‘irroq ta’sir qiladi. Biroq, soliqlar transferlar bilan birga baholanganida, umumiy fiskal tizim tenglik nuqtayi nazaridan muvozanatlashgan holatga keladi.

Ikkinchi xulosa bo‘yicha Xiggins va Lustig [20], shuningdek, Lustig, Xiggins va boshqalar [21] tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bu fikr tasdiqlangan. Ularning ta’kidlashicha, fiskal tizimning aholi turmush darajasiga ta’sirini baholashda soliqlar va davlat xarajatlarining nafaqat tengsizlikka, balki kambag‘allikka qanday ta’sir qilganini ham aniqlash muhimdir. Tizim umumiy hisobda tenglashtiruvchi bo‘lishi mumkin, biroq ayrim hollarda u kambag‘allik darajasining oshishiga ham olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Masalan, transferlar tenglikni oshirishi mumkin, ammo ular soliqlar bilan birgalikda amal qilganda, soliq va transferlardan keyingi kambag‘allik darajasi, ba’zan, ularning qo‘llanilishidan oldingi darajadan yuqori bo‘lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

CEQ Assessment© — bu fiskal siyosat orqali muayyan bir mamlakatda tengsizlik va kambag‘allikni qanchalik kamaytirish mumkinligini aniqlash uchun fiskal ta’sir tahlilini qo‘llaydigan diagnostik vositadir [22]. CEQ Assessment doirasida tahlilni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kirish statistik ma’lumotlar yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlarga asoslanadi.

CEQ modelida, avvalo, fiskaldan oldingi daromad tushunchasini aniq belgilab olish zarur. Fiskaldan oldingi daromad — bu shaxs tomonidan hali hech qanday soliq to‘lanmagan va hech qanday davlat transferi olinmagan holatdagi daromaddir. Boshqacha aytganda, prefiskal (fiskaldan oldingi) daromad — bu fuqaroning davlat bilan fiskal munosabatlari boshlanishidan avvalgi sof daromad darajasini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Fiskal taqsimlash tahlili: asosiy daromad (kirim) tushunchalari[7]

Ana shu daromad asosida odamlar daromad darajalari bo‘yicha ranglanadi (ya’ni kambag‘aldan boygacha tartiblanadi) va keyin ushbu qatorda ularga soliq va transferlarning ta’siri qanday bo‘lgani tahlil qilinadi va baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi 1-rasmda to‘rtta asosiy daromad tushunchasining soddalashtirilgan shakli ko‘rsatilgan. Ushbu daromad tushunchalarining kengaytirilgan va batafsil ko‘rinishini 2- va 3-rasmlarda kuzatish mumkin. Demak, CEQ (Commitment to Equity) metodologiyasida qarilik pensiyalarining majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimi orqali to‘lanishiga qarab, prefiskal daromadning ikki kategoriyasi ajratiladi: “bozor daromadi” va “bozor daromadi plyus pensiyalar”.

Agar pensiyalar kechiktirilgan daromad sifatida qaralsa (bundan keyin Kechiktirilgan pensiya daromadi – KPD deb yuritiladi), prefiskal daromad “bozor daromadi plyus pensiyalar”dan iborat bo‘ladi. Agar pensiyalar hukumat transferlari sifatida baholansa (bundan keyin Transfer pensiya daromadi – TPD deb yuritiladi), prefiskal daromad faqat “bozor daromadi”ni o‘z ichiga oladi.

7 O‘rganilgan ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

CEQ metodologiyasi imkon qadar eng qamrovli yondashuv bo‘lib, soliqlar va transferlarning birgalikdagi ta’sirini baholash imkonini beradi. U har bir alohida davlat aralashuvi (marjinal taqsimot)ning kambag‘allik va tengsizlikni kamaytirishga qanday hissa qo‘shayotganini aniqlash imkonini beradi. Bunday umumiy metodologiyadan foydalanish mamlakatlar kesimida natijalarni taqqoslash imkonini yaratadi va mustahkam dalillar bazasini shakllantirish orqali siyosiy darajadagi muloqotni milliy manfaatlar doirasida rag‘batlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Approbatsiya nuqtayi nazaridan qaralganda, CEQ baholashlari bir qator mamlakatlar misolida amalda qo‘llanilgan. Masalan, Armanistonda soliq siyosati, Efiopiyada transferlar qamrovi va soliqqa tortiladigan daromadning eng kam miqdori, Indoneziyada esa subsidiya siyosati bo‘yicha qo‘shimcha tahlillar va siyosiy islohotlar amalga oshirilgan [23].

Shu bilan birga, mazkur metodologiyada bir qator muhim cheklovchi jihatlar mavjudligini ham ta’kidlash lozim.

Birinchidan, soliqlar yoki xarajatlardan olinadigan foyda yoki yukni aniq bir shaxsga bog‘lashning murakkabligi sababli, metodologiya korporativ foyda solig‘i, infratuzilma xarajatlari, mudofaa xarajatlari va boshqa umumiy manfaatga xizmat qiluvchi davlat tovarlari kabi ayrim muhim soliq va xarajat turlarini qamrab olmaydi. Masalan, korporativ soliqlardan kelib chiqadigan iqtisodiy yuk yoki infratuzilmaga ajratilgan mablag‘lardan olinadigan ijtimoiy foyda jamiyat bo‘ylab tarqalgan bo‘lib, ularni alohida shaxslarga biriktirish deyarli imkonsizdir. Mavjud metodologiyalar hozircha bunday soliqlar va xarajatlarning iqtisodiy ta’sirini ishonchli tarzda aniqlay olish darajasiga yetmagan.

Ikkinchidan, CEQ metodologiyasi hozirgi bosqichda faqat soliqlar va transferlarning qayta taqsimlovchi ta’sirini o‘lchaydi. Ya’ni, u fiskal instrumentlarning samaradorligi, iqtisodiy maqsadga muvofiqligi yoki foydalilik darajasini alohida tahlil qilmaydi. Masalan, biror soliq yoki xarajat turi boshqa variantlarga nisbatan progressivroq deb topilgani uchun uni afzal deb baholash ehtimoli (vaholanki u samaradorlik mezoniga javob bermasligi mumkin) yuzaga kelishi mumkin.

Biroq qayta taqsimlash — davlat siyosatini shakllantirishda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan ko‘plab omillardan faqat bittasidir. Yaxshi soliq siyosati nafaqat adolatli, balki samarali bo‘lishi ham kerak. Davlat xarajatlari esa tenglikni yaxshilash bilan birga, davlatning eng muhim vazifalarini — zarur ijtimoiy xizmat va infratuzilmalarga investitsiya kiritishni ham ta’minlashi lozim (2,3-rasmlar).



2-rasm. Daromad tushunchalari ta’riflari: shartli (uslubiy) tahlili[8]

8 O‘rganilgan ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.



3-rasm. Daromad tushunchalari ta'riflari: batafsil tahlili[9]

Shu bois, soliqlar va davlat xarajatlarining adolatlilik mezoni doirasida ta'sir darajasini baholash orqali olingan ushbu yondashuv natijalari davlat siyosatida qaror qabul qilish uchun bitta manba bo'lib xizmat qiladi, xolos. Ammo bu natijalar biror bir soliq yoki ijtimoiy yordam mavjud ko'rinishida — o'zining amaldagi shaklida — maqbulmi (ya'ni o'zgarishsiz qoladimi) yoki uni isloh qilish kerakmi, degan umumiy siyosiy qarorni qabul qilishda boshqa dalil va omillar bilan birga baholanishi lozim. Ya'ni, CEQ tahlili foydalidir, lekin u qaror qabul qilishda yagona mezon bo'la olmaydi. Bunda samaradorlik, iqtisodiy ta'sir va ijtimoiy ustuvorlik kabi omillar ham hisobga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlandiki, CEQ (Commitment to Equity) metodologiyasi davlat moliyaviy siyosatining tengsizlik va kambag'allikka ta'sirini baholashda universal va tizimli yondashuv sifatida alohida ahamiyatga ega. Metodologiya fiskal siyosat vositalarini (soliqlar, transferlar, ijtimoiy xizmatlar) qayta taqsimlovchi ta'siri nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi. CEQ tahlillari orqali mamlakatlarda fiskal islohotlarning daromadlar taqsimotiga qanday ta'sir ko'rsatishi hisob-kitob qilinadi. Bu esa adolatli fiskal tizimni shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida CEQ usulining foydalanish sohalari, uning o'lchovlari (prefiskal va postfiskal daromadlar, soliqlar, transferlar, ijtimoiy xizmatlar) va hisob-kitob jarayonlari tahlil etildi. Shuningdek, ushbu metodologiyaning amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar, milliy darajadagi so'rovnomalar, budjet ma'lumotlari va ijtimoiy xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlandi. Jahon mamlakatlari misolida CEQ baholashlari fiskal islohotlar uchun asosiy tahlil vositasi sifatida qo'llanilgani ko'rsatildi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga erishildi:

O'zbekistonda CEQ metodologiyasi asosida fiskal siyosat tahlillarini joriy etish: milliy so'rovnoma va budjet ma'lumotlari asosida daromadlar tengsizligi va kambag'allikni baholash uchun CEQ usulini tatbiq etish zarur.

Norasmiy sektorni inobatga olgan holda baholash modellarini takomillashtirish: norasmiy sektorning ulushi yuqori bo'lgan O'zbekistonda fiskal siyosat ta'sirini to'liq baholash uchun maxsus adaptatsiya qilingan metodlar ishlab chiqilishi lozim.

Hukumat moliyaviy siyosatlarini qayta taqsimot samaradorligiga qarab baholash: har bir soliq va transfer siyosati faqat yig'imdorlik yoki xarajat miqdoriga emas, balki ijtimoiy adolat mezonlariga ham mos kelishi lozim.

9 O'rganilgan ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Fiskal siyosatda mikro-simulyatsiya vositalaridan foydalanishni kengaytirish: siyosiy qarorlardan oldin, CEQ'dagi simulyatsiya yutuqlari orqali ularning ehtimoliy ta'siri baholanishi maqsadga muvofiq.

Ilmiy-tadqiqot institutlari va statistika idoralari hamkorligini kuchaytirish: sifatli ma'lumotlar bazasini yaratish va tahlillarni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Tengsizlik va kambag'allik bo'yicha gender va mintaqaviy tahlillarni kengaytirish: CEQ doirasida gender, yosh, hududiy va ijtimoiy toifalar bo'yicha tahlillarni kiritish fiskal siyosatning adolatliligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musgrave, Richard. 1959. The Theory of Public Finance (New York: McGraw-Hill).
2. Musgrave, Richard, Karl Case, and Herman Leonard. 1974. "The Distribution of Fiscal Burdens and Benefits." Public Finance Quarterly 2, no. 3, pp. 259–311.
3. Musgrave, Richard A., J. J. Carroll, L. D. Cook, and L. Frane. 1951. "Distribution of Tax Payments by Income Groups: A Case Study for 1948." National Tax Journal 4 (March), pp. 1–53.
4. Pechman, Joseph A., and Benjamin A. Okner. 1974. Who Bears the Tax Burden? (Brookings Institution Press).
5. Bourguignon, François, and Christian Morrisson. 1980. "Progressivité et incidence de la redistribution des revenus en pays développés." Revue economique, pp. 197–233.
6. Pechman, Joseph A. 1985. Who Paid the Taxes, 1966–1985 (Brookings Institution Press).
7. Meerman, Jacob. 1979. Public Expenditure in Malaysia: Who Benefts and Why (Oxford University Press for the World Bank).
8. Selowsky, Marcelo. 1979. Who Benefits from Government Expenditures? A Case Study of Colombia (Oxford University Press).
9. Gertler, Paul, and Paul Glewwe. 1990. "The Willingness to Pay for Education in Developing Countries: Evidence from Rural Peru." Journal of Public Economics 42, no. 3, pp. 251–75.
10. Gertler, Paul, and Jacques van der Gaag. 1990. The Willingness to Pay for Medical Care: Evidence from Two Developing Countries (Johns Hopkins University Press for the World Bank).
11. Sahn, David E., and Stephen D. Younger. 2000. "Expenditure Incidence in Africa: Microeconomic Evidence." Fiscal Studies 21, no. 3, pp. 329–47.
12. Van de Walle, Dominique. 2003. "Behavioral Incidence Analysis of Public Spending and Social Programs," in The Impacts of Economic Policies on Poverty and Income Distribution. pp. 69–83 (Washington: World Bank).
13. Bourguignon, Francois, and Luiz Pereira da Silva. 2003. The Impact of Economic Policies on Poverty and Income Distribution: Evaluation Techniques and Tools (Washington: World Bank and Oxford University Press).
14. Demery, Lionel. 2000. Benefit Incidence: A Practitioner's Guide (Washington: World Bank).
15. Duclos, J.-Y., and A. Araar. 2006. Poverty and Equity: Measurement, Policy and Estimation with DAD (London: Kluwer Academic Publishers).
16. Martinez-Vazquez, Jorge. 2008. "The Impact of Bud gets on the Poor: Tax and Expenditure Benefit Incidence Analysis," chap. 5 in Public Finance for Poverty Reduction Concepts and Case Studies from Africa and Latin America (World Bank).
17. Lambert, Peter. 2001. The Distribution and Re-distribution of Income, 3rd ed. (Manchester University Press).
18. Enami, Ali, Nora Lustig, and Rodrigo Aranda. 2022. "Analytic Foundations: Measuring the Redistributive Impact of Taxes and Transfers," chap. 2 in CEQ Handbook, 2nd ed., Vol. 1, (Brookings Institution Press, Tulane University).
19. Enami, Ali. 2022. "Measuring the Redistributive Impact of Taxes and Transfers in the Presence of Reranking," chap. 3 in CEQ Handbook, 2nd ed., Vol. 1, (Brookings Institution Press, Tulane University).
20. Higgins, Sean, and Nora Lustig. 2016. "Can a Poverty-Reducing and Progressive Tax and Transfer System Hurt the Poor?" Journal of Development Economics 122, September, pp. 63–75.
21. Lustig, Nora, and Sean Higgins. 2016. "In equality and Fiscal Re-distribution in Middle Income Countries: Brazil, Chile, Colombia, Indonesia, Mexico, Peru and South Africa." Journal of Globalization and Development 7, no. 1, pp. 17–60
22. Nora Lustig, Chiara Mariotti ва Carolina Sanchez-Paramo https://blogs.worldbank.org/opendata/redistributive-impact-fiscal-policy-indicator-new-global-standard-assessing-government
23. CEQ Institute. 2016. "CEQ Snapshot No. 2," Interviews with Tassew Woldehanna and Gabriela Inchauste. November. http://us12.campaign-archive1.com

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2025. № 7

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz